

**G'ijduvon tuman Axborot-kutubxona Markazi**

**Axborot- bibliografiya xizmati**

**Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyl majmuasi  
(yo'l ko'rsatkich)**



G'ijduvon – 2026

## KIRISH

**Hamma ham o‘z tarixini ulug‘laydi. Lekin bizning mamlakatimiz tarixidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q. Biz bu merosni chuqur o‘rganishimiz kerak. Ana shunday ulug‘ insonlar va buyuk avliyolarga beshik bo‘lgan Buxoro-i Sharif asrlar davomida butun insoniyatga o‘zining bebaho madaniyati bilan beminnat xizmat qilib keldi. Buxoro o‘lkamizning ming yillar davomida jahon tafakkuri, ma’naviy, madaniy va diniy qadriyatlari taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shib kelayotgan, shariflik nomiga sazovor bo‘lgan muqaddas joylardan biridir.**

**Shavkat Mirziyoyev**

O‘zbekiston hududi islom sivilizatsiyasi va tasavvuf ilm-fanining muhim markazlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Buxoro viloyati bu borada alohida o‘rin egallaydi. Shu hududda joylashgan Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoni majmuasi nafaqat diniy-ziyosatgoh, balki tarixiy va ma’naviy meros obyektida ham katta ahamiyatga ega.

Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoni (1103–1179) Xojagon tasavvuf maktabining asoschilaridan biri bo‘lib, uning ta’limoti keyinchalik Naqshbandiya tariqatining shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Majmua uning maqbarasi atrofida shakllangan bo‘lib, bugungi kunda ham ziyoratchilar va tadqiqotchilar uchun muhim maskan hisoblanadi.

Mazkur bibliografik yo‘l ko‘rsatkichda majmua haqida yozilgan kitoblar, ilmiy maqolalar va elektron manbalar tizimli ravishda jamlangan.

Ushbu qo‘llanma Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoni majmuasi haqida asosiy tarixiy, ilmiy va madaniy manbalarni tizimlashtirib, ularni sodda va tushunarli shaklda taqdim etish uchun tuzildi.

## **XOJA ABDULXOLIQ G‘IJDUVONIY MAJMUASI**

Buxoro viloyati G‘ijduvon shahrida joylashgan me‘moriy yodgorlik (XII—XV asrlar). Majmua Buxoro shahridan 50 km uzoqlikda bo‘lib, xojagon tariqatining asoschisi Abdulxoliq ibn Abduljalil G‘ijduvoni tomonidan bunyod etilgan. Majmua Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoni maqbarasi, Ulug‘bek madrasasi, masjid va hovuzdan iborat.

Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoni Buxorodagi yetti pirlarning birinchi vakili hisoblanadi. U Xojayi jahon nomi bilan mashhur bo‘lib, tasavvuf maktabiga asos solgan. Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoni ziyoratgohi oldida temuriy Mirzo Ulug‘bek 1433-yilda bir madrasa bunyod ettiradi. Majmuadagi Ulug‘bek madrasasi tashqi ko‘rinishi bilan ajralib turgan. Buxoro xoni shayboniy Ubaydullaxon (1539—1550) davrida ushbu majmuada masjid bunyod etilgan. Buxoro xoni Abdullaxon II (1583—1598) davrida 1583-yil madrasa va masjid qayta ta‘mirlangan. Mirzo Ulug‘bek madrasasi peshtoqida Alaq surasining 1-7-oyatlari keltirilgan bo‘lib, mazkur yozuvlar suls xatida yozilgan.

Abdulxoliq G‘ijduvoni qabrtoshi toshdan yasalgan va yon tomonlarida suls xatida Qur‘oni Karimdan „Mujodala“ surasining o‘n birinchi oyati bitilgan. Qabrtoshning qisqa yon tomonlarida esa epitafiya (baxshida yozuv) yozilgan. Majmuadagi hovuzdagi tarnovda esa nastaqil xatida Xofiz Sheroziyning g‘azalidan parcha keltirilgan. Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoni majmuasidagi masjid esa 2003-yida yangitdan qayta qurilgan. Hozirgi kunda Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoni majmuasida ziyoratchilar uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

## **XOJA ABDULXOLIQ G‘IJDUVONIY XAZIRALARI (Maqbara).**

Buxoroda xaziralarning shakllanishi IX-X asrlarga borib taqaladi. “Xazira” – “xazon bo‘lganlar”; “xobidagon” – “abadiy uyquga ketganlar” degan ma‘noni anglatadi. Chor Bakr, Bahouddin Naqshband majmualari xazira atrofida shakllangan. Abdulxoliq G‘ijduvoni xazirasi madrasa qarshisida qo‘sh uslubida qad rostlagan. Xazira g‘ishtin devor bilan o‘rab olingan bo‘lib, uning tarkibiga kvadrat tarxga ega bo‘lgan masjid-chillaxona, ikkita ayvon va dahma ham kirgan.

Bundan tashqari, Abdulxoliq G‘ijduvoni xaziralaridagi inshootlar sirasiga ikkita gumbazli ochiq binolar ham kiradi. Ulardan biri madrasa tomonidan qurilgan, hovliga kirish uchun xizmat qilgan; ikkinchisi shimoliy tomonda bo‘lib, temir panjara bilan qoplangan derazasi bor. Huddi shunday panjarali derazalar hovlining sharqiy tomonida va shuningdek, ayvon ostida janubiy tomonda ham bo‘lgan. Hozirgi kunda uchala qadimiy panjaradan faqat bittasi saqlangan bo‘lib, qolgan ikkitasining taqdiri noma‘lum.

Panjara XVI asrga mansub bo‘lib, temirchilikning o‘ta murakkab uslubida tayyorlangan va unda Allohning 99 ismari qo‘yib ishlangan. Qolgan ikkita zamonaviy panjara qadimiy uslubga taqlidan yasalgan.

G‘ijduvoniylar dahmasi hovlida, volida-i muhtaramalarining oyoq uchida joylashgan bo‘lib, kulrang marmar tosh bilan qoplangan.

Xazira ichidagi Chillaxona majmuasi XX asrning 80- yillariga qadar mavjud edi. Shu yillarda ta‘mirlash ishlari vaqtida chillaxona, ikki ayvon, ularni qurshab turgan g‘ishtin devor buzib tashlangan. 2003 yilgi ta‘mirlashdga qadar yog‘och panjara bilan o‘ralgan dahma – Abdulholiq G‘ijduvoniylar onalarining qabrlari, ikkita chiroqdon va tug‘largina saqlanib qolgan edi.

Yangi ta‘mirlash jarayonida bular ham buzib tashlangan. Xazirada ikkita chiroqdon (XVI asr) ham bo‘lib, ular XX asrning 80-yillarida umuman boshqa ko‘rinishda, yangitdan quriladi. Dahma XVI asrga tegishli bo‘lib, 1930 yilda majmuani ilmiy jihatdan tadqiq qilgan V.A. Shishkin 1913 yilda majmuaning g‘arbiy tomonida yangi marmartosh qo‘yilganligini yozadi.



A.G‘ijduvoniylar xaziralaridagi dahma. 2026-yil.

Mustaqil O‘zbekistonimiz taraqqiyotining yangi bosqichida Xojai Jahon ziyoratgohlaridagi eng qadimiy inshoot – Xazira olov ichida yangidan paydo bo‘lgan qaqnus qushi kabi bunyod bo‘ldi. Uning umumiy maydoni 789,52 m<sup>2</sup>.ni, ya‘ni bo‘yi – 28,4m<sup>2</sup>, eni – 27,8m<sup>2</sup> ni tashkil etadi. Xazirani tiklashda 0,25 x 0,25 x 0,03 sm. o‘lchamli maxsus g‘ishtlardan foydalaniladi. Xaziraning g‘arbiy devorining balandligi 6,42 metr bo‘lib, devorni tiklashda ohak va kul aralashmasidan iborat murakkab qorishmadan foydalanilgan. 2019 - yilda ko‘milib ketgan poydevor ochilib, devor ko‘tarildi va xazira qadimiy tarixi asosida o‘zining asl ko‘rinishida bunyod etildi.

## ULUG‘BEK MADRASASI

G‘ijduvondagi Ulug‘bek madrasasi Temuriylar davrida Buxorodan Samarqandga o‘tgan va Temuriylar davlati poytaxtini shimolda Xorazm, janubda Rum va Fors viloyatlari bilan bog‘lovchi tugun vazifasini o‘tagan katta karvon yo‘li yoqasida qurilgan.

Aytilishicha, Sohibqiron Amir Temur Xitoyga yurishidan qaytgach, Abduxoliq G‘ijduvoniy sharafiga madrasa va maqbara qurdirishni ko‘ngliga tugadi, ammo vafoti sabab niyatiga erisha olmaydi. Bobosining niyatidan xabar topgan Mirzo Ulug‘bek keyinchalik Abduxoliq G‘ijduvoniy qabri yoniga madrasa soldirgan ekan. Buxoro viloyati Abduxoliq G‘ijduvoniy masjidi imom-xatibi Orifxon Omonovga ko‘ra bu gaplar manobalarda kelgan ekan.

Muhammad Ahmedovga ko‘ra madrasa XII asrda paydo bo‘la boshlagan Xo‘ja Abdulxoliq G‘ijduvoniy xazirasi to‘g‘risida „qo‘sh“ uslubida qurilgan.



Buxorolik ilm ahlining fikriga ko‘ra, Mirzo Ulug‘bek tomonidan G‘ijduvonda madrasaning qurilishi bejizga bo‘lmay, uning bobosi e‘tiqodiga sodiqlik belgisi deb hisoblashadi. Amir Temur Yusuf Hamadoni, Abdulxoliq G‘ijduvoni, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband ta‘limotiga ehtirom bilan qaragan. Turkistondagi Ahmad Yassaviy qabri ustiga katta gumbazli maqbara qurdirgan.

Sharqshunos va manbashunos olim Abdusattor Jumanazarning tadqiqotlari natijasiga ko‘ra, Mirzo Ulug‘bek madrasani hijriy 836-yili (milodiy 1432/33-

yili) pishiq g‘ishtdan 2 qavatli, 20 hujrali, darsxona va masjidli qilib qurdirgan. Madrasa mudarrisi 40 nafar talabaga ta‘lim bergan. Keyinchalik u vayron bo‘lgan va hozirgi ta‘mirlangan holatidagi ko‘rinishi bir qavatdir.

Madrasa hujjati nizomida o‘quv binosi har yili ta‘mirlanib borilishi qat‘iy shart qilib qo‘yilgan. Undan ortganigina qolganlarga taqsimlangan.

Madrasa 1583-yili o‘zbek hukmdori Abdullaxon II (1583–1598) tomonidan maxsus ta‘mir qilingan.

Abdusattor Jumanazar: madrasa joylashgan va unchalik katta bo‘lmagan hudud „Xojai Jahon sarmozori“ deb nomlanadi. Olim bu yerda Buxoro inqilobiga qadar 7 nafar o‘quv dargohi faoliyat yuritganligini ta‘kidlaydi.

Madrasada sho‘rolar inqilobiga qadar ta‘lim berilgan. U sho‘rolar davrida qarovsiz ahvolga tushib qolgan. 1933-yilda V. Shishkin, V. Nilsen va I. Notkinlar ilmiy tekshiruv ishlarini olib borishgan va madrasa o‘lchamlarini aniqlashgan. 1950-yillarda madrasa selitra va ammafos kabi kimyoviy o‘g‘itlar saqlanadigan omborxonaga aylantirilgan.

Abdulxoliq G'ijduvoniyning 890 yilligi munosabati bilan Ulug'bek madrasasi 1993-yil ta'mirlandi. 2003-yil G'ijduvoniylar daxmasi ustiga, tomi ustunli yog'och o'ymakori gumbaz bilan yopildi, ayvon qurildi. Daxma bezaklari qaytadan tiklandi. Madrasa oldi, daxma va yangi qurilgan masjid joylashgan hudud zamonaviy talablarga mos qilib obodonlashtirildi.

Hozirda madrasaning darsxonasida Buxoro muzeyining filiali, masjidida — kutubxona o'z faoliyatini yuritib kelmoqda.



Madrasa kutubxonasi 2026-yil

Madrasaning old fasadi asosiy kirish peshtog'idan va ikki qanotdan tashkil topgan va XII asrda paydo bo'la boshlagan Xo'ja Abdulxoliq G'ijduvoniylar xazirasiga qaratilgan. Qanotlar tarkibiga 1 qavatli hujralar va 2 ta gumbazsiz guldastalar kiradi. Madrasa ichkarisiga peshtoqning naqshinkor darvozasi orqali kiriladi. Darvoza ortida miyonsaroy (chortoq) joylashgan. Miyonsaroydan kiraverishda to'ridagi eshikdan hovliga (15x13 metr) kiriladi. Miyonsaroyning o'ng tomonida masjid, chap tomonida darsxona (8x4,6 metr) joylashgan. 2 ayvonli hovli, 1 qavatli katta-kichik hujralar bilan o'rab olingan.



Anchagina sodda koshinkorlik ishlatilgan. Madrasa hujralarining umumiy soni 8 ta. Hujralardan 4 tasi murabba tarhli, tomi qubbali.

Bosh tarzida Ulug'bek nomi va madrasa qurilgan sanasi yozilgan. Bosh tarzi peshtog'i yoniga ustunli, tekis tomli ayvon (bostirma) qurilib, ichi koshin bilan bezatilgan, peshtog yonlaridagi xujralarga bosh tarzidan kiriladigan eshik, tobadonlarga ganchkori panjaralar o'rnatilgan. Serhasham naqshinkori bezaklari tiklangan.

Madrasa hovlisida kirish qismiga qarab turgan ayvon peshtoqining kitobasida “*Kimki ilm talabida bo‘lsa, Jannat u kishining talabida bo‘ladi*” deyilgan hadis yozilgan.



Madrasa va unga tutash kichik minora 1432-1433-yillarda Temuriylar davlati hukmdori va buyuk astronom Mirzo Ulug‘bek tomonidan bunyod etilgan.

Minora silindrsimon shaklda bo‘lib, poydevor qismidan yuqoriga qarab ozgina ingichkalashib boradi. Bu me‘morchilikda binoning mustahkamligini ta‘minlash va zilzilaga bardoshlilikini oshirish uchun qilingan.

Bino to‘liq pishiq g‘ishtdan terilgan. Minoraning tashqi fasadi Temuriylar davri me‘morchiligiga xos bo‘lgan moviy, ko‘k va oq rangli sirlangan koshinlar

bilan bezatilgan. Unda geometrik (handasiy) va islomiy naqshlar g‘isht terish san‘ati bilan uyg‘unlashtirib yuborilgan.

Madrasa va minora peshtoqlarida arab tilidagi suls xatida yozilgan bitiklar mavjud. Xususan, majmua devorlarida Qur‘oni Karimning "Alaq" surasi oyatlari tushirilgani ma‘lum.

Minoraning eng yuqori qismida muazzin chiqib azon aytishi uchun maxsus qafasa (ko‘shk) qilingan bo‘lib, u ravoqli darchalardan iborat.

Asrlar davomida iqlim sharoitlari va turli urushlar sababli minora va majmua bir necha bor xarob holatga kelgan.

Dastlabki yirik ta‘mirlash ishlari Buxoro xoni Abdullaxon II (1583–1598) hukmronligi davrida o‘tkazilib, minora va madrasa atrofidagi o‘pirilgan joylar qayta tiklangan.

XX asrning o‘rtalariga kelib (Sovet davrida) yodgorlik ancha qarovsiz qolib ketgan edi. Mustaqillik yillarida yodgorlikka e‘tibor qaytdi.

2003-yilda Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniylar tavalludining 900 yilligi munosabati bilan, keyinroq esa 2019-yilda ziyoratgohda juda keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari olib borildi. Minora qiyshayishdan asrab qolinib, uning ko‘chib tushgan koshinlari va yozuvlari eski holatiga asosan qayta tiklandi.

Xulosa qilib aytganda, G‘ijduvon minorasi shunchaki azon aytiladigan baland inshoot emas, balki XV asr Temuriylar davri g‘isht terish va koshinkorlik san‘atining ajoyib namunasi hamda O‘rta Osiyo ma‘naviy hayotining markazlaridan biriga aylangan qutlug‘ qadamjodir.

A. G'ijduvoniyl majmuasidagi masjid -ayvon.

Ayvonda 12 ta ustun bo'lib ayvonnig umumiy balandligi 11 metrni tashkil etadi. Uning yuqori qismidagi bezak ishlari Buxoro uslubi va ustaning ijodiy kompozitsiyasi uyg'unlashgan holda bezatilgan. Mahoratli usta Akmal Muhiddinov 15 nafar shogirdlari bilan ayvon



qurilishida ikki yil davomida ish olib borgan. Ayvon o'lchamlari : balandligi 7,5 metr, uzunligi 30 metr bo'lib, ayvon devorlarining parametri 43 metrni tashkil etadi. Oldingi qator 8 ta, keyingisi 4 ta ikki qator ustunlardan iborat. Ustunning tepa qismi muqarnasli sharafa, o'rta qismi an'anaviy islmiy naqshli kompozitsiya bilan bezatilgan bo'lib, pastki qism ustunlar G'azg'on marmaridan tayyorlangan.




Hovuz. 2026-yil

Quduq. 2026-yil





Majmua hududidagi bog‘. 2026-yil.



Taxoratxona. 2026-yil.

## Xulosa

Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniylar majmuasi O'zbekistonning boy tarixiy va ma'naviy merosini o'zida mujassam etgan muhim ziyoratgohlardan biri hisoblanadi. Ushbu majmua nafaqat me'moriy obida sifatida, balki tasavvuf ilmining rivojida katta o'rin tutgan maskan sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Bu yerda yashab ijod qilgan Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniylar o'zining chuqur ma'naviy qarashlari va ta'limoti bilan butun islom olamiga ta'sir ko'rsatgan.

Mazkur bibliografik yo'l ko'rsatkich orqali majmua haqida mavjud bo'lgan turli xil manbalar — kitoblar, ilmiy maqolalar va elektron resurslar bir joyga jamlandi va tizimlashtirildi. Bu esa foydalanuvchilarga kerakli ma'lumotlarni tez va oson topish imkonini beradi. Ayniqsa, o'quvchilar uchun ushbu qo'llanma mavzuni mustaqil o'rganish, referat va boshqa yozma ishlarni tayyorlashda muhim yordamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, qo'llanma orqali o'quvchilarda tarixiy obidalarga, milliy va diniy qadriyatlarga nisbatan hurmat tuyg'usini shakllantirishga ham erishiladi. Chunki bunday ziyoratgohlar xalqimizning boy o'tmishi, urf-odatlar va ma'naviy hayotini aks ettiradi. Ularni o'rganish esa yosh avlodning ma'naviy barkamolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu qo'llanma Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniylar majmuasi haqida bilimlarni kengaytirishga, mavjud manbalarni tizimli o'rganishga va ulardan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, tarixiy merosimizni asrab-avaylash va uni kelajak avlodga yetkazishda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

### Kitoblar

1. **Ahmedov, M.Q.** O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi. Toshkent: O'zbekiston, 1995 — 179 b.
2. **Hamroyev, A. H., Rahmonova, M. A.** Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniylar majmuasi va Ulug'bek madrasasi tarixi. Buxoro: Buxoro, 2003. — 87 b.
3. **Jumanazar, A. K.** Buxoro ta'lim tizimi tarixi. Toshkent: Akademiya nashri, 2017 — 592 b.
4. **Jumanazar, A. K.** Qoratosh. Toshkent: Akademiya nashri, 2022 — 512 b.

5. Movarounnahr ilmiy markazlari. Toshkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2022. – 480 b.

6. O‘zbek Sovet ensiklopediyasi. XI tom. Toshkent: O‘zbek Sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi, 1978. – 656 b.

\* \* \*

7. **Бақоев, Муҳаммаджон** Гиждувоннома : [Матн] / М. Бақоев. – Тошкент : Янги аср авлоди, 2000. – 300 б.

8. Бухоро вилояти тарихий ёдгорликлари. – Бухоро: Бухоро нашриёти, 2015. – 180 б.

9. Ислом тасаввуфи ва хожагон тариқати. – Тошкент: Маънавият, 2018. – 160 б.

10. Ўзбекистон меъморий ёдгорликлари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2010. – 256 б.

11. Ўзбекистон зиёратгоҳлари (Етти пирлар). – Тошкент: Шарқ, 2020. – 320 б.

12. **Ҳамроев, Азалшоҳ** Хожа Абдулхолиқ Гиждувоний мажмуаси : тарихи, бугунги куни ва истикболлари : [Матн] / Азалшоҳ Ҳамроев. – Тошкент : Ta’lim nashriyoti, 2020. – 104 б.

#### Maqolalar

13. **Karimov, A.** G‘ijduvoni y ziyoratgohi va uning me‘moriy hususiyatlari // Madaniy meros. – 2021. – №2. 30-34 b.

14. **Navro‘zova, G.** Abdulxoliq G‘ijduvoni y majmuasining tarixiy ahamiyati // O‘zbekiston tarixi . – 2022. – №3. – 45-49 b.

15. **Rasulov, B.** Buxoro tasavvuf maktabi va G‘ijduvoni y merosi // Ilm-fan va jamiyat. – 2023. – №1. – 25-29 b.

16. **Раҳимов, К.** Хожа Абдулхолиқ Гиждувонийнинг хаёти, фаолияти ва қарашлари // G‘ijduvon. – 2020. – 7 янв.

\* \* \*

17. **Шишкин, В. А.** Медресе Улугбека в Гиждуване // Материалы Узкомстариса. – Ташкент, 1933. – № 2-3.

## Elektron manbalar.

- 18.** Abdulxoliq G'ijduvoniyl majmuasi // O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (onlayn). – Kirish rejimi: <https://uzpedia.uz>.
- 19.** Abdulxoliq G'ijduvoniyl // Qomus.info (elektron resurs). – Kirish rejimi: <https://qomus.info>.
- 20.** G'ijduvoniyl ziyoratgohi // Ziyoratga.uz. – Kirish rejimi: <https://ziyosatga.uz>.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	<b>1.</b>
<b>XOJA ABDULXOLIQ G‘IJDUVONIY MAJMUASI .....</b>	<b>2</b>
<b>XOJA ABDULXOLIQ G‘IJDUVONIY XAZIRALARI (Maqbara). .....</b>	<b>2-3.</b>
<b>ULUG‘BEK MADRASASI .....</b>	<b>4-8.</b>
<b>XULOSA .....</b>	<b>9.</b>
<b>ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....</b>	<b>9-11.</b>



